FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 37.015.3:159.952

Tolipova Gulchehra Tilovmurodovna,
Xalqaro Nordik universiteti magistranti,
Toshkent shahar Chilonzor tumani 184-maktab o‘qituvchisi

Doniyorova Shahnoza,
Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Yoqubova Dilnura Rustamovna,
Xalqaro Nordik universiteti magistranti,
Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA DARS JARAYONIDA O‘QUVCHILAR DIQQATINI OSHIRISH – TA’LIM SIFATINI YUKSAK BOSQICHGA KO‘TARISH OMILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini boshqarish, faollashtirish va barqarorlashtirishning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Diqqatning ogohlik, yo‘naltirish va ijroiy nazorat tarmoqlaridan tashkil topgan neyrokognitiv modeli o‘quv mashg‘ulotlarining tarkibiy tuzilishi bilan bog‘langan. Xalqaro empirik tadqiqotlar natijalari asosida faol o‘qitish metodlarining o‘quv natijalariga ta’siri, sinf xonasidagi vizual muhitning diqqatni jamlashdagi ahamiyati hamda o‘qituvchining sinfni boshqarish mahorati yoritilgan. Tahlillar faol o‘qitish usullari o‘quv kursini o‘zlashtira olmaslik ko‘rsatkichini 33,8 foizdan 21,8 foizgacha kamaytirishini, ortiqcha vizual bezaklar esa o‘quvchilarning chalg‘ish vaqtini 28,4 foizdan 38,6 foizgacha oshirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, diqqatning dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda 45 daqiqalik darsni tashkil etishning olti bosqichli pedagogik modeli taklif etilgan. Mazkur model o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, kognitiv yuklamani maqbullashtirish va ta’lim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: diqqat, ta’lim sifati, dars samaradorligi, faol o‘qitish, ijroiy funksiyalar, kognitiv yuklama, sinf muhiti, o‘quv faoliyati, umumiy o‘rta ta’lim.

ПОВЫШЕНИЕ ВНИМАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ УРОКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические основы управления, активизации и поддержания внимания учащихся в процессе обучения в общеобразовательных учреждениях. Нейрокогнитивная модель внимания, включающая сети бдительности, ориентировки и исполнительного контроля, рассматривается во взаимосвязи со структурой учебного занятия. На основе международных эмпирических исследований раскрывается влияние активных методов обучения на образовательные результаты, значение визуальной среды класса для концентрации внимания, а также роль педагогического мастерства учителя в управлении учебной

деятельностью. Результаты анализа показывают, что активные методы обучения снижают долю учащихся, не освоивших учебный курс, с 33,8% до 21,8%, тогда как избыточное визуальное оформление классной комнаты увеличивает время отвлечения учащихся с 28,4% до 38,6%. Кроме того, предложена шестиступенчатая педагогическая модель организации 45-минутного урока с учётом динамики внимания. Данная модель направлена на повышение познавательной активности учащихся, оптимизацию когнитивной нагрузки и совершенствование качества образования.

Ключевые слова: внимание, качество образования, эффективность урока, активное обучение, исполнительные функции, когнитивная нагрузка, классная среда, учебная деятельность, общее среднее образование.

ENHANCING STUDENTS' ATTENTION DURING LESSONS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract. This article examines the psychological and pedagogical foundations of managing, stimulating and maintaining students' attention during lessons in general secondary education institutions. The neurocognitive model of attention, comprising alerting, orienting and executive control networks, is considered in relation to the structure of classroom instruction. Based on international empirical studies, the article explores the influence of active learning methods on educational outcomes, the importance of the visual classroom environment for attention regulation, and the role of teachers' classroom management skills. The findings indicate that active learning reduces the proportion of students who fail to complete a course from 33.8% to 21.8%, while excessive visual decoration increases students' off-task time from 28.4% to 38.6%. Furthermore, a six-stage pedagogical model for organizing a 45-minute lesson in accordance with the dynamics of attention is proposed. The model aims to enhance students' cognitive engagement, optimize cognitive load and improve the overall quality of education.

Keywords: attention, quality of education, lesson effectiveness, active learning, executive functions, cognitive load, classroom environment, learning activity, general secondary education.

KIRISH

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, uni muayyan vaqt davomida saqlab turish va zarur hollarda qayta faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday darsning mazmuni qanchalik puxta ishlab chiqilgan, metodik jihatdan qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lmasin, uning natijadorligi, avvalo, o‘quvchining o‘qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan axborotni idrok etishga qanchalik e'tibor qaratishiga bog‘liq. Chunki diqqat idrok, xotira, tafakkur va boshqa bilish jarayonlarining samarali amalga oshishini ta'minlovchi muhim psixologik mexanizmlardan biridir.

O‘quvchi diqqatining yetarli darajada jamlanmasligi yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ularni tahlil qilish, amaliyotda qo‘llash va uzoq muddatli xotirada

saqlash jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini boshqarish faqat intizomni ta’minlash vositasi emas, balki ta’lim sifatini belgilovchi muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim mazmunini yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning bilim sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim vazifa sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda ta’lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan [2].

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta’lim dasturlari va darsliklarni takomillashtirish bilan bir qatorda, darsning ichki samaradorligini oshirish, ya’ni o‘quvchining mashg‘ulot davomida faol o‘rganishga sarflaydigan vaqtini ko‘paytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar va turli raqamli platformalarning kundalik hayotga keng kirib kelishi o‘quvchilarning diqqat faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir vaqtning o‘zida bir nechta media manbalaridan foydalanishga odatlangan shaxslarda keraksiz axborotlarni filtrlash va asosiy vazifaga e’tibor qaratish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilishi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan [3].

Amaliyotda o‘quvchilarning dars jarayonida chalg‘ishi ko‘pincha intizom buzilishi sifatida baholanadi. Bunday holatlarda o‘qituvchilar tanbeh berish yoki ogohlantirish kabi vositalardan foydalanishi mumkin. Biroq diqqatning susayishi har doim ham o‘quvchining xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ayrim hollarda bunga darsning bir xil shaklda davom etishi, axborot hajmining ortib ketishi, faoliyat turlarining yetarlicha almashmasligi, topshiriqlarning murakkabligi yoki sinf muhitidagi ortiqcha qo‘zg‘atuvchilar sabab bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilar diqqatini oshirish masalasiga psixologik va pedagogik jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida yondashish zarur. Diqqatni boshqarish o‘qituvchidan darsning har bir bosqichini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish imkoniyatlari va psixologik holatiga mos ravishda rejalashtirishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini oshirishga ta’sir etuvchi psixologik-pedagogik omillarni xalqaro empirik tadqiqotlar asosida aniqlash hamda 45 daqiqalik darsni diqqat dinamikasiga muvofiq tashkil etish modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diqqatning psixologik va neyrokognitiv xususiyatlarini ilmiy manbalar asosida o‘rganish;

o‘quvchilar diqqatiga ta’sir etuvchi pedagogik va tashkiliy omillarni aniqlash;

faol o‘qitish metodlari hamda sinf muhitining o‘quvchilar diqqatiga ta’sirini tahlil qilish;

dars jarayonida diqqatni faollashtirishga xizmat qiluvchi usul va vositalarni tizimlashtirish;

45 daqiqalik darsni diqqat dinamikasiga mos ravishda tashkil etish modelini ishlab chiqish.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Diqqat muammosi psixologiya, pedagogika va neyrofiziologiya fanlarida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda diqqat inson ongining muayyan obyekt yoki faoliyatga yo‘naltirilishi va jamlanishi bilan tavsiflanadi. U mustaqil bilish jarayoni bo‘lish bilan birga, boshqa bilish jarayonlarining samarali amalga oshishiga ham xizmat qiladi.

M. Posner va S. Petersen tomonidan ishlab chiqilgan neyrokognitiv yondashuvga ko‘ra, diqqat uchta asosiy tarmoqdan tashkil topadi: ogohlik (alerting), yo‘naltirish (orienting) va ijroiy nazorat (executive control) [4; 5]. Ogohlik tarmog‘i insonning faol va tayyor holatda bo‘lishini ta’minlaydi. Yo‘naltirish tarmog‘i muhim axborot manbasini tanlash va unga e’tibor qaratishga xizmat qiladi. Ijroiy nazorat esa chalg‘ituvchi omillarni cheklash, qarama-qarshi javoblarni boshqarish va xatti-harakatlarni belgilangan maqsadga yo‘naltirish imkonini beradi.

Mazkur nazariy yondashuv dars jarayonini tashkil etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘qituvchi darsning turli bosqichlarida o‘quvchilarning diqqat mexanizmlariga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, muammoli savol berish ogohlikni kuchaytirsa, asosiy tushunchalarni sxema orqali tushuntirish diqqatni yo‘naltiradi, mustaqil topshiriqlar esa ijroiy nazoratni faollashtiradi.

P.Ya. Galperin va S.L. Kabilnitskaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda diqqatni maxsus tashkil etilgan faoliyat va nazorat harakatlari orqali shakllantirish imkoniyati asoslab berilgan [6]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, diqqatni faqat tabiiy ravishda yuzaga keladigan psixologik holat sifatida emas, balki ta’lim jarayonida rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan ko‘nikma sifatida ham baholash lozim.

E.G‘. G‘oziyevning umumiy psixologiyaga oid qarashlarida ham diqqatning ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyoriydan keyingi shakllari, ularning o‘quv faoliyatidagi o‘rni va rivojlanish xususiyatlari yoritilgan [7]. Ushbu tasnif o‘quvchilar bilan ishlashda diqqatni jalb qilishning turli pedagogik usullaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Dars davomida diqqatning o‘zgarish xususiyatlarini o‘rgangan D. Bunce va hammualliflar kimyo kurslari tinglovchilari ishtirokida olib borgan tadqiqotlarida diqqatning uzilishi darsning dastlabki daqiqalaridayoq yuzaga kelishi mumkinligini

aniqlaganlar. Shuningdek, faol topshiriqlar va o‘quvchilarning bevosita ishtiroki diqqat uzilishlarini kamaytirishga yordam berishi ko‘rsatilgan [8].

K. Wilson va J.H. Korn tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar sharhida diqqatning atigi 10–15 daqiqa davomida saqlanishi haqidagi keng tarqalgan qarashning empirik asoslari cheklanganligi ta’kidlangan [9]. Mualliflar darsning samaradorligi faqat vaqt bilan emas, balki mashg‘ulot davomida faoliyat turlarining qanday tashkil etilishi bilan ham bog‘liqligini qayd etadilar.

Sinf xonasining vizual muhiti va uning bolalar diqqatiga ta’siri A.V. Fisher va hammualliflar tomonidan eksperimental tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ortiqcha bezaklar bilan to‘ldirilgan xonada bolalarning chalg‘ish ko‘rsatkichi 38,6 foizni, oddiyroq vizual muhitda esa 28,4 foizni tashkil etgan. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari mos ravishda 42 va 55 foiz bo‘lgan [10]. Ushbu natijalar sinf xonasini tashkil etishda ko‘rgazmali materiallardan maqsadli foydalanish muhimligini ko‘rsatadi.

S. Freeman va hammualliflarning 225 ta ilmiy tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilida faol o‘qitish metodlarining samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, faol o‘qitish sharoitida imtihon natijalari o‘rtacha 0,47 standart og‘ishga yuqori bo‘lgan, kursni o‘zlashtira olmaslik ko‘rsatkichi esa 33,8 foizdan 21,8 foizgacha kamaygan [11].

J. Kouninning sinfni boshqarish bo‘yicha tadqiqotlari o‘qituvchining sinfdagi barcha jarayonlardan xabardor bo‘lishi, faoliyatlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashi va butun sinfni o‘quv faoliyatiga jalb etishi muhimligini ko‘rsatadi [12].

B. Rosenshine tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitish tamoyillarida yangi materialni kichik qismlarga ajratib tushuntirish, har bir bosqichdan keyin o‘quvchilarning tushunganligini tekshirish va mustaqil mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish tavsiya qilinadi [13]. J. Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi esa inson ishchi xotirasining cheklangan imkoniyatlarini hisobga olib, o‘quv materialini ortiqcha axborot bilan murakkablashtirmaslik zarurligini asoslaydi [14].

A. Diamond ijroiy funksiyalarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib, ularning yoshga qarab bosqichma-bosqich takomillashishini ko‘rsatgan [15]. Bu esa turli yoshdagi o‘quvchilar uchun diqqatni boshqarish usullarini individual va yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlash zarurligini anglatadi.

O. Tolipov va M. Usmonboyevaning pedagogik texnologiyalarga oid ilmiy ishlari interfaol metodlardan ta’lim jarayonida foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi [16].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar diqqatni ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash, uni pedagogik vositalar orqali boshqarish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar diqqatini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni pedagogik jihatdan tizimlashtirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid qonunchilik hujjatlari hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar o‘rganildi. Tahlil jarayonida ta’lim sifati, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq talablar hisobga olindi.

2. Ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish. Diqqat psixologiyasi, neyrokognitiv jarayonlar, faol o‘qitish metodlari va sinfni boshqarish masalalariga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Qidiruv Google Scholar, ERIC, PubMed va eLIBRARY ilmiy ma’lumotlar bazalarida, shuningdek, respublika ilmiy nashrlarida amalga oshirildi. Bunda “diqqat”, “dars”, “o‘quvchi”, “attention”, “classroom”, “off-task behavior”, “active learning” va “внимание учащихся” kabi kalit so‘zlardan foydalanildi.

3. Manbalarni tanlash va saralash. Tahlilga kiritilgan tadqiqotlar quyidagi mezonlar asosida tanlandi:

tadqiqotning sinf yoki auditoriya sharoitida amalga oshirilganligi;

diqqat yoki o‘quv faoliyatidan chalg‘ish holatlarining miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanganligi;

tadqiqot natijalarining ilmiy taqrizdan o‘tgan nashrlarda e’lon qilinganligi;

tadqiqot natijalarining ta’lim jarayoniga bevosita aloqadorligi.

4. Qiyosiy tahlil va umumlashtirish. Tanlangan ilmiy tadqiqotlarning natijalari o‘zaro solishtirildi. Diqqatga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha tasniflandi: dars davomida diqqatning dinamikasi, o‘qitish metodlari, sinfning jismoniy va vizual muhiti hamda o‘qituvchining sinfni boshqarish mahorati.

5. Pedagogik modellashtirish. Olingan nazariy va empirik ma’lumotlar asosida 45 daqiqalik darsni diqqatning neyrokognitiv tarkibiy qismlariga muvofiq tashkil etishning olti bosqichli modeli ishlab chiqildi. Modelni yaratishda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, axborot hajmini maqbullashtirish, faoliyat turlarini almashtirish va dars yakunida refleksiyani tashkil etish tamoyillari hisobga olindi.

NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar diqqatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni to‘rtta asosiy guruhga ajratish imkonini berdi:

Dars davomida diqqatning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.

O‘qitish metodlari va o‘quvchilarning faollik darajasi.

Sinf xonasining jismoniy va vizual muhiti.

O‘qituvchining sinfni boshqarish mahorati.

Mazkur omillarga oid asosiy empirik natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Dars jarayonida o‘quvchilar diqqatiga ta’sir etuvchi omillarga oid empirik tadqiqotlar

Tadqiqot	Dizayn va ishtirokchilar	Asosiy natija
Bunce va boshq. (2010) [8]	Dars vaqtida elektron pult orqali o‘z-o‘zini kuzatish; kimyo kurslari tinglovchilari	Diqqat uzilishlari darsning dastlabki daqiqalaridayoq kuzatiladi; faol topshiriqlardan so‘ng uzilishlar kamayadi.
Wilson va Korn (2007) [9]	Ilmiy tadqiqotlar sharhi	Diqqatning faqat 10–15 daqiqa saqlanishi haqidagi qat’iy qarash empirik jihatdan yetarli asoslanmagan; faoliyat turlarining almashinuvi muhim.
Fisher va boshq. (2014) [10]	Eksperiment; 24 nafar bola	Bezakli xonada chalg‘ish 38,6%, oddiy xonada 28,4%; o‘zlashtirish mos ravishda 42% va 55%.
Freeman va boshq. (2014) [11]	225 ta tadqiqot meta-tahlili	Faol o‘qitishda imtihon natijalari 0,47 standart og‘ishga yuqori; o‘zlashtira olmaslik 33,8% dan 21,8% gacha kamaygan.
Ophir va boshq. (2009) [3]	Media bilan ko‘p vazifali ishlashga odatlangan shaxslar ishtirokidagi eksperimental tadqiqot	Bir nechta media manbalaridan foydalanishga odatlangan shaxslar chalg‘ituvchi axborotni filtrlashda ko‘proq qiyinchilikka duch kelgan.
Kounin (1970) [12]	Sinflarni videokuzatish asosidagi tadqiqot	O‘qituvchining sinfdagi jarayonlarni nazorat qilishi, faoliyatlar o‘rtasidagi silliq o‘tishlar va butun guruhni faollashtirishi chalg‘ishni kamaytiradi.

Jadval ma’lumotlari diqqatning dars davomida bir tekis pasayib boradigan ko‘rsatkich emasligini tasdiqlaydi. Diqqatning uzilishi turli vaqtlarda, qisqa epizodlar shaklida yuzaga kelishi mumkin. O‘qituvchi faoliyat turini almashtirganida, o‘quvchilarga savol berganida yoki ularni mustaqil topshiriqqa jalb qilganida bunday uzilishlar kamayishi kuzatiladi [8].

Bu holat darsni faqat ma’ruza yoki tushuntirish asosida tashkil etish yetarli emasligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarni muntazam ravishda faol fikrlash, javob berish, taqqoslash va xulosa chiqarishga jalb etish talab etiladi.

Sinf xonasining vizual muhiti va diqqatga ta’siri.

A.V. Fisher va hammualliflar tomonidan olib borilgan eksperimentda sinf xonasining vizual bezatilishi o‘quvchilarning diqqatini jamlashiga qanday ta’sir

ko‘rsatishi o‘rganilgan. Tadqiqotda bolalar ortiqcha bezaklar bilan to‘ldirilgan va nisbatan sodda vizual muhitga ega xonalarda mashg‘ulot olib borganlar.

Natijalar quyidagicha bo‘lgan:

Bezakli xonada chalg‘ish ko‘rsatkichi – 38,6%.

Oddiy xonada chalg‘ish ko‘rsatkichi – 28,4%.

Bezakli xonada o‘zlashtirish ko‘rsatkichi – 42%.

Oddiy xonada o‘zlashtirish ko‘rsatkichi – 55%.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, ortiqcha vizual bezaklar mavjud bo‘lgan xonada o‘quvchilarning chalg‘ish ko‘rsatkichi 10,2 foiz punktga yuqori, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi esa 13 foiz punktga past bo‘lgan [10].

Bu natijalar sinf xonasini tashkil etishda ko‘rgazmali vositalarni maqsadli tanlash, ortiqcha axborot va bezaklarni kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ixtiyoriy diqqat va ijroiy funksiyalar hali rivojlanish jarayonida bo‘lgani sababli vizual muhitni to‘g‘ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

Faol o‘qitish metodlarining samaradorligi.

O‘quvchilarning darsdagi faolligi va o‘zlashtirish natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik S. Freeman va hammualliflarning meta-tahlilida batafsil o‘rganilgan [11].

Tadqiqotda an’anaviy ma’ruza shaklidagi ta’lim bilan savol-javob, muammoli topshiriqlar, juftlik va guruh ishlari kabi faol o‘qitish metodlariga asoslangan ta’lim natijalari taqqoslangan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, an’anaviy ta’limda kursni o‘zlashtira olmaslik ko‘rsatkichi 33,8 foizni, faol o‘qitish sharoitida esa 21,8 foizni tashkil etgan. Shuningdek, faol o‘qitish sharoitida imtihon natijalari o‘rtacha 0,47 standart og‘ishga yuqori bo‘lgan.

Mazkur natijalar faol o‘qitish metodlarining o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchi faqat axborotni qabul qilmaydi, balki uni qayta ishlaydi, savollarga javob beradi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi.

45 daqiqalik darsni diqqat dinamikasiga mos tashkil etish modeli.

Yuqoridagi nazariy va empirik natijalar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 45 daqiqalik darsni tashkil etishning olti bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Modelning asosiy maqsadi dars davomida diqqatning ogohlik, yo‘naltirish va ijroiy nazorat tarkibiy qismlarini izchil faollashtirish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini muntazam qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

2-jadval. 45 daqiqalik darsni diqqat dinamikasiga mos tashkil etish modeli

Bosqich va vaqt	Diqqatning yetakchi tarkibiy qismi	Usul va texnikalar
1. Safarbarlik (0–4 daqiqa)	Ogohlik	Muammoli savol, kutilmagan dalil, dars maqsadini e’lon qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorlash.

2. Yangi material, 1-qism (4–12 daqiqa)	Yo‘naltirish	Qisqa tushuntirish, sxema, tayanch konspekt, asosiy tushunchalarni doskada ajratib ko‘rsatish.
3. Faol tekshiruv (12–17 daqiqa)	Ijroiy nazorat	“O‘yla – juftlash – bo‘lish”, kartochkalar, qisqa og‘zaki so‘rov.
4. Yangi material, 2-qism (17–27 daqiqa)	Yo‘naltirish	Namoyish, misollar tahlili, “Insert”, “Klaster” metodlari.
5. Mustaqil va guruh ishi (27–39 daqiqa)	Ijroiy nazorat	Bosqichli topshiriqlar, darajalangan mashqlar, muammoli vaziyatlar, o‘zaro tekshirish.
6. Refleksiya (39–45 daqiqa)	Ogohlik va o‘z-o‘zini nazorat	“Chiqish chiptasi”, uch jumlali xulosa, o‘z-o‘zini baholash, uy vazifasini izohlash.

Taklif etilgan modelda darsning har bir bosqichi o‘ziga xos psixologik-pedagogik vazifani bajaradi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilarning diqqati darsga yo‘naltiriladi. Buning uchun o‘qituvchi kutilmagan savol, qiziqarli fakt yoki muammoli vaziyatdan foydalanishi mumkin. Ikkinchi bosqichda yangi bilimlar qisqa va tushunarli shaklda taqdim etiladi. Uchinchi bosqichda o‘quvchilarning materialni qay darajada tushunganligi faol topshiriqlar orqali tekshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda yangi materialning keyingi qismi misollar, namoyishlar va interfaol metodlar yordamida mustahkamlanadi. Beshinchi bosqich o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilimlarni amaliyotda qo‘llashi va hamkorlikda ishlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda esa o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, o‘zlashtirilgan bilimlarni umumlashtiradi va keyingi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari o‘quvchilar diqqatini oshirish masalasiga faqat psixologik yoki faqat pedagogik muammo sifatida emas, balki ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro uzviy bog‘liqligi sifatida yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, diqqatni boshqarish darsning metodik tuzilishiga bevosita bog‘liq. O‘quvchi uzoq vaqt davomida faqat tinglovchi sifatida ishtirok etadigan darslarda faol bilish jarayonining susayishi ehtimoli ortadi. Shu sababli tushuntirish, savol-javob, mustaqil topshiriq, juftlik va guruh ishlari o‘zaro uyg‘unlashtirilishi lozim. Bunda har bir faoliyat turi o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va mavzuning murakkabligiga mos tanlanishi kerak.

Ikkinchidan, dars davomida diqqatning 10–15 daqiqadan keyin albatta susayishi haqidagi fikrni qat’iy psixologik qonuniyat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Wilson va Korn tadqiqotlari bu qarashning yetarli empirik asosga ega emasligini ko‘rsatadi [9]. Muhimi, dars davomida bir xil faoliyatni uzoq davom ettirmaslik va o‘quvchilarning bilish faolligini turli usullar yordamida qo‘llab-quvvatlashdir.

Uchinchidan, sinf xonasining vizual muhiti ta’lim jarayonida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan omildir. O‘quv materiallari, plakatlar, rasmlar va boshqa ko‘rgazmali vositalar o‘zining didaktik vazifasiga mos bo‘lishi kerak. Ortiqcha bezaklar o‘quvchining asosiy ta’limiy vazifadan chalg‘ishiga sabab bo‘lishi mumkin [10]. Shu bois sinf xonasida ko‘rgazmalilik va vizual soddalik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir.

To‘rtinchidan, o‘qituvchining sinfni boshqarish mahorati o‘quvchilar diqqatini saqlashda alohida o‘rin tutadi. J. Kounin ta’kidlaganidek, o‘qituvchining sinfdagi barcha jarayonlarni kuzatib borishi, faoliyatlar o‘rtasidagi uzluksizlikni ta’minlashi va o‘quvchilarning barchasini mashg‘ulotga jalb etishi muhim pedagogik shartlardan biridir [12].

Beshinchidan, diqqatni oshirishda kognitiv yuklamani hisobga olish zarur. J. Swellerning nazariyasiga muvofiq, ishchi xotiraning imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ortiqcha axborotni qayta ishlash o‘quv jarayonini murakkablashtiradi [14]. Shu sababli o‘qituvchi yangi materialni kichik qismlarga ajratishi, murakkab tushunchalarni bosqichma-bosqich tushuntirishi va har bir bosqichda o‘quvchilarning tushunganligini tekshirishi maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, diqqatni boshqarish usullari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda qisqa, ko‘rgazmali va harakatga asoslangan topshiriqlardan foydalanish samarali bo‘lsa, yuqori sinflarda muammoli vaziyatlar, mustaqil izlanish, tahlil va munozara kabi faoliyatlarga ko‘proq o‘rin ajratish mumkin. Bu yondashuv ijroiy funksiyalarning yoshga bog‘liq rivojlanish xususiyatlari bilan hamohangdir [15].

Ayniqsa, matematika fanini o‘qitishda diqqatni faollashtirishning turli shakllaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, yangi mavzuni muammoli savol bilan boshlash, matematik qonuniyatni mustaqil aniqlashga yo‘naltirish, masalalarni juftlikda yechish, xatolarni topish va izohlash kabi usullar o‘quvchilarning faol fikrlashini ta’minlaydi. Bunday yondashuvda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlash va shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Taklif etilgan olti bosqichli modelning muhim jihati shundaki, unda diqqatni faollashtirish darsning faqat boshlanishiga xos jarayon sifatida qaralmaydi. Aksincha, mashg‘ulotning barcha bosqichlarida o‘quvchining psixologik faolligini qo‘llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, mazkur model barcha fanlar va sinflar uchun o‘zgarmas vaqt me’yori sifatida qaralmasligi kerak. Darsning mazmuni, mavzuning murakkabligi, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va individual xususiyatlariga qarab bosqichlar davomiyligini moslashtirish mumkin. Masalan, amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil ishga ko‘proq vaqt ajratish, yangi nazariy mavzuni o‘rganishda esa tushuntirish va faol tekshiruv bosqichlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati diqqatning neyrokognitiv tarkibiy qismlarini darsning pedagogik bosqichlari bilan bog‘lash orqali namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa o‘qituvchilarga darsni rejalashtirish, faoliyat turlarini almashtirish, o‘quvchilarni faollashtirish va sinf muhitini maqbullashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar berishdan iborat.

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini oshirishga oid ilmiy manbalar tahlili va xalqaro empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘quvchilar diqqati ta’lim jarayonining muhim psixologik-pedagogik omili bo‘lib, bilimlarni idrok etish, qayta ishlash, xotirada saqlash va amaliyotda qo‘llash samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli diqqatni boshqarish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Diqqat dars davomida bir tekis pasayib boradigan jarayon emas, balki turli omillar ta’sirida o‘zgarib turadigan dinamik hodisadir. Faoliyat turlarining muntazam almashinuvi, o‘quvchilarning savol-javob va amaliy topshiriqlarda ishtirok etishi diqqatning qayta faollashishiga yordam beradi. Shu bois diqqatning 10–15 daqiqa saqlanishi haqidagi qarashni qat’iy vaqt chegarasi sifatida emas, balki darsni faoliyat turlari asosida tashkil etish zarurligini anglatuvchi tavsiya sifatida qabul qilish lozim.

Faol o‘qitish metodlari ta’lim natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Freeman va hammualliflarning meta-tahliliga ko‘ra, faol o‘qitish sharoitida kursni o‘zlashtira olmaslik ko‘rsatkichi 33,8 foizdan 21,8 foizgacha kamaygan, imtihon natijalari esa o‘rtacha 0,47 standart og‘ishga yuqori bo‘lgan. Bu natijalar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish zarurligini tasdiqlaydi.

Sinf xonasining vizual muhiti o‘quvchilar diqqatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. Ortiqcha bezaklar mavjud bo‘lgan xonada chalg‘ish ko‘rsatkichi 28,4 foizdan 38,6 foizgacha oshishi, o‘zlashtirish esa 55 foizdan 42 foizgacha pasayishi kuzatilgan. Shu sababli ko‘rgazmali vositalardan maqsadli foydalanish va sinf muhitini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tashkil etish zarur.

Diqqatni boshqarish o‘qituvchidan nafaqat fan mazmunini yaxshi bilishni, balki psixologik-pedagogik jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etishni ham talab qiladi. O‘qituvchining sinfni kuzatib borishi, faoliyatlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashi, barcha o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilishi va kognitiv yuklamani maqbullashtirishi dars samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 45 daqiqalik olti bosqichli dars modeli diqqatning ogohlik, yo‘naltirish va ijroiy nazorat tarkibiy qismlarini dars tuzilmasi bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Modelda yangi bilimlarni o‘zlashtirish, faol tekshiruv, mustaqil va guruh ishlari hamda refleksiya o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. Uning

asosiy afzalligi o‘quvchilarning diqqatini darsning barcha bosqichlarida qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligidir.

Amaliyot uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

dars jarayonida kuzatiladigan diqqatsizlik holatlarini faqat intizom muammosi sifatida emas, balki pedagogik dizayn va o‘quv faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masala sifatida baholash;

dars davomida tushuntirish, savol-javob, amaliy mashq, juftlik va guruh ishlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish;

yangi axborotni kichik mazmuniy qismlarga ajratib berish va har bir bosqichdan so‘ng tushunishni tekshirish;

sinf xonasidagi ortiqcha vizual qo‘zg‘atuvchilarni kamaytirish va ko‘rgazmali vositalarni maqsadli joylashtirish;

o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslariga diqqatni boshqarish, sinfni samarali nazorat qilish va faol o‘qitish metodlariga oid amaliy mashg‘ulotlarni kiritish;

dars jarayonida shaxsiy smartfonlardan foydalanishni aniq pedagogik qoidalar asosida tartibga solish;

ishlab chiqilgan modelni turli fanlar, sinflar va yosh guruhlarida tajriba-sinovdan o‘tkazish.

Umuman olganda, o‘quvchilar diqqatini oshirish ta’lim sifatini yuksaltirishning muhim pedagogik omilidir. Diqqatni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Demak, samarali dars – bu nafaqat bilim beriladigan, balki o‘quvchining diqqatini maqsadli yo‘naltirish, uni faol fikrlashga undash va mustaqil o‘rganishga tayyorlash jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 24.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. 29.04.2019-yil.

3. Ophir E., Nass C., Wagner A.D. Cognitive control in media multitaskers // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2009. – Vol. 106, No. 37. – P. 15583–15587.

4. Posner M.I., Petersen S.E. The attention system of the human brain // Annual Review of Neuroscience. – 1990. – Vol. 13. – P. 25–42.

5. Petersen S.E., Posner M.I. The attention system of the human brain: 20 years after // Annual Review of Neuroscience. – 2012. – Vol. 35. – P. 73–89.

6. Гальперин П.Я., Кабыльницкая С.Л. Экспериментальное формирование внимания. – М.: Изд-во МГУ, 1974. – 102 с.

7. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010. – 544 b.

8. Bunce D.M., Flens E.A., Neiles K.Y. How long can students pay attention in class? A study of student attention decline using clickers // Journal of Chemical Education. – 2010. – Vol. 87, No. 12. – P. 1438–1443.

9. Wilson K., Korn J.H. Attention during lectures: Beyond ten minutes // Teaching of Psychology. – 2007. – Vol. 34, No. 2. – P. 85–89.

10. Fisher A.V., Godwin K.E., Seltman H. Visual environment, attention allocation, and learning in young children: When too much of a good thing may be bad // Psychological Science. – 2014. – Vol. 25, No. 7. – P. 1362–1370.

11. Freeman S., Eddy S.L., McDonough M., et al. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2014. – Vol. 111, No. 23. – P. 8410–8415.

12. Kounin J.S. Discipline and Group Management in Classrooms. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1970. – 178 p.

13. Rosenshine B. Principles of instruction: Research-based strategies that all teachers should know // American Educator. – 2012. – Vol. 36, No. 1. – P. 12–19.

14. Sweller J. Cognitive load during problem solving: Effects on learning // Cognitive Science. – 1988. – Vol. 12, No. 2. – P. 257–285.

15. Diamond A. Executive functions // Annual Review of Psychology. – 2013. – Vol. 64. – P. 135–168.

16. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.